

Kodirova Saodat Abduraximovna
Navoiy davlat universiteti dotsenti, fil f.f.d (PhD)
saodat.abduraximovna@gmail.com

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” BEBAHO QOMUSIY ASAR

Annotatsiya: Maqollar-xalqning dunyoqarashini, jamiyatga munosabatini, axloqiy me’yorlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada qadimgi maqollar va ularning zamonaviy adabiyotdagi yangi versiyalari ochib berilgan. Har bir tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar maqollarda o‘z izini qoldiradi.

Kalit so‘zlar: asar, syujet, mazmun, g‘oya, xarakter, qahramon, hikoya, dialog.

Кодирова Саодат Абдирахимовна
Доцент Наваинского государственного университета, доктор
философии по филологии (PhD)
saodat.abduraximovna@gmail.com

“ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТЮРК” БЕСЦЕННАЯ ЭНЦИКЛОПЕДИЯ

Аннотация: Пословицы –отражающий мировоззрение, отношение к обществу и моральные нормы народа. В этой статье раскрываются некоторые древние пословицы и их новые версии в современной литературе. Каждый исторический период общественно-политические события оставляют свои следы в пословицах.

Ключевые слова: произведение, сюжет, содержание, идея, характер, герой, история, диалог.

Kodirova Saodat Abduraximovna
Associate Professor of Navoi State University, Doctor of Philosophy in
Philology (PhD)
saodat.abduraximovna@gmail.com

“DEVONU LUG'OTIT TURK” INVALUABLE ENCYCLOPEDIA

Abstract: Proverbs attitude to society and moral norms of the people. This article elucidates certain ancient proverbs and their new versions in today's literature. Every historical period, socio-political events leave their traces in proverbs.

Keywords: work(written work), plot(subject), content(meaning), idea, character(manner), hero, moral story, dialogue.

Kirish

Mahmud Koshg'ariy tuzgan turkiy tildagi ilk nodir lug'atida ham og'zaki, ham yozma adabiyotning o'ziga xos namunalarini, ayniqsa, og'zaki ijodga oid ko'plab xalq maqollarining qayd etilganini, shu sabab bilan ularning bizning zamonamizgacha ham yetib kelgani yaxshi ma'lum. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Bu maqollar qadimgi turk urug'lari va qabilalari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning variantlari bizgacha yetib kelgan, bu maqollarning bir qanchasi hozirda ham xalq orasida keng ishlatiladi.

Adabiyotlar. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham ko'plab og'zaki ijod namunalari, xususan, xalq maqollari yo asl holida yoki biroz o'zgarishlar bilan qo'llangan. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari: Ahmad Yassaviy, Nosiriddin Rabg'uziy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiylar ijodida ham shunday hodisa kuzatiladi. Alisher Navoiy asarlarida qo'llagan maqollarning o'zi bir olam. Buni maxsus tadqiq etgan Y.Ishoqov Alisher Navoiy g'azaliyotida bu uslub yanada sayqal va rivoj topdi: uning she'rlarida, bir tomondan, yangidan jalb qilingan maqol, matal va hikmatli so'zlarni ko'plab uchratsak, ikkinchi tomondan, ularning xilma-xil maqsad uchun rang-barang uslubda ishlatilganligini ko'ramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Asarning qo'lyozma va nashr nusxalari va asardagi maqollarning tadrijiy takomilini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mahmud Koshg'ariy umri davomida qilgan mashaqqatli mehnati evaziga qomuschi olim bo'lib tanildi. U turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olimdir. Turk-arab lug'atining birinchi namunasi ham uning nomi bilan bog'liq. "Devonu lug'otit turk" Mahmud Koshg'ariy qoldirgan va turkiy xalqlar uchun bebaho bo'lgan qomusiy asardir. [3]

Bu asarda olim turkiy tildagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltiradi. "Devonu

lug‘otit turk”ning adabiy qimmatini ham benihoya kattadir. Unda **uch yuzga yaqin** she‘riy parcha, maqol va hikmatli so‘zlar bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariy so‘zning lug‘aviy ma‘nosini izohlashda amaliy foydalangan.

Bu haqda Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she‘rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim”. [4,-452] Shunday qilib, bu kitobda O‘rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo‘lgan badiiy ijodi to‘g‘risida juda qimmatli ma‘lumotlar jamlangan. Bular hozirgi avlodlar uchun ham nihoyatda katta ahamiyatga ega.

“Devonu lug‘otit turk” XI asrda yozilgan bo‘lsa-da, mutaxassislar undagi adabiy parchalarning, jumladan, maqollarning ancha qadimgi davrlar bilan bog‘lanib ketishini qayd etishgan. Garchi “Devonu lug‘otit turk”dagi adabiy asarlarning vujudga kelish xronologiyasini qat‘iy belgilab bo‘lmasa ham, lekin ularning mazmuni, til va uslubiga qarab yaratilgan davrini faraz qilish mumkin. Ko‘pgina adabiy parchalarda qabilalarning juda qadimgi patriarxal hayoti, ibtidoiy jamoa qoldiqlari, tabiat hodisalariga nisbatan primitiv qarash (masalan, animizm) ifodalanadi hamda ularda islom dini aqidalarining izi ko‘rinmaydi, arabcha so‘zlar ishlatilmaydi. Bunday asarlar Mahmud Koshg‘ariy davridan ancha ilgari vujudga kelib, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin.

“Devonu lug‘otit turk”da turli mavzulardagi xalq maqollari keltiriladi va ularning mohiyati yoritilib, ishlatilish o‘rni ham ko‘rsatiladi. Unda vatanparvarlik, vatanga muhabbat, vatanni ardoqlash mavzusidagi maqollar ham uchraydi: “Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur” (Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa qo‘tir bo‘ladi). Mahmud Koshg‘ariy bu maqolni shunday izohlaydi: “Bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi”. [4, -110]

Dushmanlarga nisbatan doim hushyor va sergak bo‘lishga undovchi maqol: “Tulum anutsa, qulun bo‘lur, Tulum unutsa, bolun bo‘lur” (Dushmanga qarshi qurol hozirlagan qulun (toy) bo‘ladi, qurol hozirlashni unutgan kishi asir bo‘ladi.)

Kattalar tajribasi, ularning pand-o'g'itlari qiymati balandligi haqidagi maqol: "Qul savi qalmas, Qag'il bag'i yazilmas" (Keksalar so'zi bekor ketmaydi, tol ho'l novdasining bog'i yozilmaydi.)

"O'd kechar kishi to'ymas, yalinguq o'g'li mangu qolmas" (Zamon o'tar, kishi to'ymas, inson bolasi mangu qolmas) maqoli esa dunyoning foniyligi, inson umrining qisqaligi haqida bo'lib, umrni bekor, behuda o'tib ketmasligiga chaqiradi. [4,- 102]

"Suv ichirmasga sut ber" (Suv ichirmaganga sut ber) maqoli yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma'noda ishlatilgan. [4, - 103]

Yaxshilikning javobi ham yaxshilik, ezgulik, olihimmatlik yoki maqtov bo'ladi mazmunidagi maqol: "Ko'b sukutga qush qo'nar, Ko'rkluk kishiga so'z kelar" (Shoxi ko'p, shoxlari o'ralib ketgan daraxtga qush qo'nadi, yaxshi kishiga so'z (maqtov) keladi.)

Yoki shuning boshqacha varianti:

Yig'ach uchina yel tegir, Ko'rklig kishiga so'z kelir (Daraxt uchiga shamol tegadi, yaxshi odamga so'z yetadi. Shuning uchun u o'zini ehtiyot qilishi kerak"), deyiladi). [4,- 105]

Insondagi oliy fazilatlardan yana biri bosiqlik, halimlikdir. Aksincha, yomonlik, tubanlik, yuzsizlik eng yaramas xislatlarga kiradi. Shuning uchun xalq tilida shunday maqol yuzaga kelgan: "Tuzin birla urush, o'tun birla ustarma" (Yuvosh odam bilan urush (chunki sen uni bosishing mumkin), uyatsiz, yuzsiz odam bilan urushma (chunki u seni sharmanda qiladi).

"Tag'ig' uqruqin egmas, tengizni qayiqin bukmas" (Tog' arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi) maqoli katta ishlarni arzimagan sabab bilan to'xtatib bo'lmaslik mazmunida qo'llangan.

"Emgak ekinda kolmas" (mehnat bo'sh ketmaydi) maqoli har ishga astoyidil kirishishga undaydi.

"Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilik o'prashur" (Maslahatli ish borgan sari yaxshilanib boradi, bemaslahat ish borgan sari buzilib boradi), "Keng

to‘n o‘bramas, kengashlik bilig artamaz” (Keng to‘n to‘zimaydi, kengashli ish buzilmaydi) maqollarida o‘zaro kengashga chorlanadi.

“Sabanda sandrish bo‘lsa, O‘rtugunda irtash bo‘lmas” (Yer haydash vaqtida puxtalik bo‘lsa, xirmonda anglashilmovchilik bo‘lmaydi) maqolida anglashilmovchilik, kelishmovchilik chiqmasligi uchun ishni boshdan pishiq qilish kerakligi ta’kidlanadi.

“O‘kuz azaqi bo‘lg‘uncha, buzag‘u bashi bo‘lsa yik” (Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq) maqolida mustaqillik bo‘ysunishdan yaxshiroq degan xulosa ifodalanadi.

“Ko‘k ko‘rdi keragu yazti” (mehnat va mashaqqat ko‘rdi-yu, o‘tovini orqasiga yuklab oldi) maqolida bardoshsizlik, besabrlik tahqir va tanqidga duchor qilishi haqida aytilgan.

“Ashuch aytur tubum altun, qamich ayur men qaydaman” (Qozon aytur: tubim oltin, cho‘mich aytur: men qaydaman) maqolida maqtanchoq kishilar tanqid qilinadi. Olim bu maqolning qo‘llanish o‘rnini ham izohlaydi: bu masal o‘zining kimligini biladigan tanish kishilar oldida maqtanuvchilarga nisbatan aytilgan. Maqtanchoqlik doim butun insoniyat tomonidan qoralanib kelingan salbiy hodisalardan biridir.

“Ag‘ilda o‘g‘laq tug‘sa, ariqda o‘ti unar” (Molxonada buzoq tug‘ilsa, ariqda o‘ti chiqadi) maqoli rizq uchun ortiqcha urinish va qayg‘urish kerak emasligini anglatadi. Hozirgi kunda keng ishlatiladigan “Tishini bergan rizqini ham beradi”, “Mehmon kelar eshikdan rizqi kelar teshikdan” maqollariga hamohang.

“Tavg‘ach xanning to‘rqusi telim, tenglamazib bichmas” (Qoraxitoy xoqonining ipak gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay kesilmaydi) maqoli isrofgarchilikka qarshi aytilgan. Isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, tejamkorlik ham insondagi yaxshi fazilatlardan biri ekanligi ulug‘lanadi.

“Uma kelsa, qut kelar” (Mehmon kelsa, qut kelar) maqolida mehmonni yaxshi qarshi olish, malol olmaslik uqtirilib, mehmonga nisbatan saxovatli bo‘lish lozimligi aytiladi. Mehmon inson nomining, hurmatining yoyilishidagi bir omil ekanligi uqtiriladi.

“Qiz kishi savi yo‘rig‘li bo‘lmas” (Baxil odamning ovozi chiqmaydi) maqolida baxillik, xasislik, tor ko‘ngillik qoralanadi.

“Ermaguga bulut yuk bo‘lur” (Yalqovga bulut ham yuk bo‘ladi), “Erik erni yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘” (tirishqoqning labi yog‘liq, erinchoqning boshi qonlik), “Erdamsizdan qut chetilur” (Hunar va odob fazilatlarini bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi) maqollarida yalqovlik, ishyoqmaslik illatlari qoralanadi. [4,- 76].

“Qarg‘a qazg‘a o‘tkunga buti sinur (Qarg‘a uchishda o‘zini g‘ozga o‘xshatsa buti sinadi) maqoli qo‘ldan kelmagan ishga behuda urinmaslikka, o‘z holiga yarasha ishlashga undab aytilgan.

“Kichiklikda qatig‘lansa, ulg‘azu sevnur” (Yoshligida tirishib harakat qilgan odam katta bo‘lgach sevinadi) maqolida yoshlikdan mehnatsevarlikka chaqiriladi.

“Yalg‘uz qaz utmas” (Yolg‘iz g‘oz sayramaydi) maqoli esa “Yakka otning changi chiqmas” maqoliga hamohang.[4,- 622]

“Ikki burg‘a ichashur, o‘tra ko‘kagun yangilur” (Ikki erkak hayvon olishadi, orada pashsha yengiladi) maqolida ikki kattaning urishishidan kichiklar orada zarar ko‘rishi ta‘kidlangan.

“Usuqmisha saqig‘ qamug‘ suv ko‘runur” (Chanqagan kishiga har bir sarob suv bo‘lib ko‘rinadi) maqoli muhtoj odam har bir narsadan o‘z hojatining chiqishini o‘ylaydi degan mazmunda ishlatilgan[4,- 95].

“Bilg‘a erig ezgu tutib so‘zin eshit, ardamini o‘graniban ishqa sura (Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla. Ilmlarini, hunarlarini o‘rganib, amalga oshir), “Qut belgusi bilik” (Bilim – baxt belgisi) maqollarida ilm, hunar o‘rganish ulug‘langan.

Xulosa. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari – xalq maqollarining salmoqli namunalarini ilk marta yaxlit holda o‘zida jamlagan nodir manbadir. Ular xalq tafakkur tarzining qadimiy davrlardagi namoyon bo‘lish shakllarini ochiq ko‘rsatib turishi bilan juda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular:

1) o'zigacha bo'lgan uzoq davrlarning o'ziga xos tarixiy-etnografik hamda adabiy-estetik hodisasi sifatida boy tarixiy hamda adabiy voqelikning o'ziga xos xotiralari vazifasini ado etadi;

2) ushbu maqollar keyingi davrlarda yaratilgan maqollarning tarkibi va mazmunidagi o'zgarishlar va takomil bosqichlarini kuzatish uchun boy material bera oladi;

3) folklor materiallarini, jumladan, xalq maqollarinig qadimiy shakl va variantlarini topish, to'plash va ularni ilmiy tahlilga tortishda o'sha davrlarda yaratilgan yozma adabiyot namunalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", shuningdek, keying davrlarda yaratilgan ko'plab ilmiy adabiy hamda tarixiy asarlar, ayniqsa, buyuk mutafakkir adib Alisher Navoiy qoldirgan meros boy faktik materiallar berishiga shubha yo'q;

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida og'zaki va yozma adabiyotning o'ziga xos namunalari zamonamizgacha ham yetib kelgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham ko'plab og'zaki ijod namunalari, xususan, xalq maqollari yo asl holida yoki biroz o'zgarishlar bilan qo'llangan. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari: Ahmad Yassaviy, Nosiriddin Rabg'uziy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiylar ijodida ham shunday hodisa kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kodirova S. A. The effectiveness of the comprehensive health-saving model for university students in uzbekistan in the context of digitalization //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 120. – C. 01058.

2. Kodirova S. IDEALISTIC STUDY OF PROVERBS //YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 45-51.

3. Madvaliyev A. Mahmud Koshg'ariy // <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/mahmud-koshgariy/>

4. Mahmud Koshg'ariy . Devonu lug'at it-turk. – T.: Fan, 1960. – B. 452.

5. Qodirova, S. (2024). MAQOL VA MATAI JANRINING SHE'RIYATDAGI O'RNI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 48(48).